ISSN 3060-4567

FAOLIYAT MARKAZLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MEHNATINI TASHKIL ETISH

Choriyeva Durdona Anvarovna *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi dotsenti,*

Ortiqboyeva Marjona Toxir qizi *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo`nalishi 4 kurs talabasi*

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruxiy jixatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir, shuning uchun ularni guruhlar bo‘yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi (V.I.Loginova):

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta’sir ko‘rsatish bilan belgilanadi:

1. Bolalarni maqsad qo‘yishga, mehnat malakalari, ko‘nikmalari, mehnat madaniyati bo‘yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o‘rgatish.

2. Bolalarda bo‘lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jaryonlarini mehnatda qatnashuvchilar o‘rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg’otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahmiyatli ekanligini tushinib yetish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

1) Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.

ISSN 3060-4567

2) Bolalarda mehnat axliga hurmatni, ularga qo‘lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.

3) Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o‘rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

- Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatda katnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o‘z shaxsiy mehnatiga nisbatan to‘g’ri munosabatni tarbiyalash.

- Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlilik, qat’iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matonatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

- Madaniy xulq va o‘z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o‘zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o‘z mehnati bilan qatnashish, o‘zi va o‘rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish va hokazo...

Bolalar mehnatining mazmuni «MTTda ta’lim va tarbiya dasturi»ning birinchi va ikkinchi kichiq guruhlar uchun «Mehnat faoliyati uchun zamin tayyorlash» bo‘limida, o‘rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida esa «Mehnat» bo‘limida berilgan.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish hamma yosh guruhlari uchun «Mashg’ulotlarda ta’lim berish», «Tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot xodisalariga qiziqishni tarbiyalash» bo‘limlarida berilgan. Katta va maktabga tayyorlov guruhlari uchun qo‘l mehnatining mazmuni «Qurish-yasash» bo‘limida berilgan.

Dasturda bolalar mehnatiga mustaqil faoliyat va axloqiy tarbiyaning vositasi sifatida qaraladi.

Ta’lim-tarbiyaviy ishning mazmuni Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo‘lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to‘g’risida tushuncha berib boriladi. Masalan,

ISSN 3060-4567

o‘simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulot kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to‘g’risida bilim va tushunchalar berib boriladi.

Kattalarning mehnati bilan tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko‘zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to‘g’risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o‘rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg’otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o‘rgatish.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- har bir kishi mehnatining ijtimoiy moxiyati;
- mehnat ahli o‘rtasidagi ijobiy o‘zaro yordam berish munosabati;
- har qanday kasb ham muxim ekanligini tushuntirish.

Mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish:

1. Mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati;

2. Materiallarni tanlash (mehnat materiallari);

3. Jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan asboblarni tayyorlab olish);

4. Mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari);

5. Natija-mehnat mahsuli.

MTT dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to‘g’risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:

Kichik guruh:

1. Ayrim kasb egalarining mehnat jarayoni.
2. Mehnat jarayonidagi mehnat harakatlari.
3. Mehnat jarayonini amalga oshirish uchun kerakli materiallar.
4. Ma’lum bir mehnat jarayonini bajarish uchun jihozlar.
5. Mehnat natijasi.
6. Kishilar mehnatining ijtimoiy ahamiyati.

O‘rta guruhda mehnat to‘g’risida qo‘shimcha tasavvur va bilimlar beriladi:

- Harakat sifati xakida.
- Kishilarning mehnatini yengillatuvchi moslamalar.
- Kishilarning mehnatga muhabbati.

ISSN 3060-4567

Katta va maktabgacha tayyorlov guruhida yana yangi tasavvur va bilimlar beriladi:

1. Kishilar mehnatini yengillatadigan mashina va mexanizmlar to‘g’risida.
2. Kishilar mehnati jamoa harakterida ekanligi to‘g’risida.
3. Jamoa mehnati jarayonida kishilarning o‘zaro munosabatlari to‘g’risida.
4. Mehnat qahramonlari, xalqimizning mehnat an’analari xaqida.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning vosita va metodlari MTT da bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish har xil tashkiliy yo‘llar va metodlar orqali amalga oshiriladi.

Birinchi yo‘l – ekskursiya, mashg’ulot, maqsadli sayrlar orqali bolalarni kattalar mehnatiga yaqinlashtirish. Bunda kuzatish, kino va diafilm, diapazitiv, teleeshittirish, badiiy adabiyot, ko‘rgan va eshitgani to‘g’risida suhbat, tarbiyachi va bolalarning hikoyalari. Tarbiyachining hikoya va tushuntirishi, didaktik o‘yinlar kabi turli-tuman metodlardan foydalaniladi.

Ikkinchi yo‘l – mashg’ulot va mashg’ulotdan tashqari vaqtlarda kattalar mehnatini bolalarga yaqinlashtirish. Gigienik va pedagogik jihatdan mumkin bo‘lgan ishlarni (binoni tozalash, idish yuvish, yuvilgan kirlarni dazmollash va tahlash, bayram kiyimlarini tikish, bolalar bilan o‘yin, mashg’ulot uchun kerakli materiallarni tayyorlash va boshqalar) bolalar oldida bajarish. Kuzatish, ko‘rsatib tushuntirish, suhbat, tarbiyachining so‘zlab berishi va shunga o‘xshash materiallardan foydalaniladi. Kuzatishdan keyin bolalar bilan shunga o‘xshash mehnat turlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi: kutubxonaga borib kelgandan keyin yirtilgan kitoblarni yamash, modalar atelesiga borib kelgandan keyin qo‘g’irchoqqa kiyim tikish va hokazolar.

Uchinchi yo‘l – bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari. Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari har xil bo‘lishi mumkin (xona o‘simliklarini yuvish, polizda ko‘chat yoki urug’larni ekish uchun jo‘yaklar tayyorlash, binoning ichini tozalash va h.k.).

Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlarini tashkil etish shakllari ham ish mazmuniga qarab har xil bo‘ladi:

ISSN 3060-4567

1. Asosiy ishni kattalar bajarishadi, bolalar qo‘llaridan kelganicha yordam beradilir.

2. Tarbiyachi ishni boshlab beradi, qolganini bolalar o‘zlari mustaqil davom ettirishadi.

3. Kattalar boshlab beradi, bolalar davom ettiradi, keyin esa bolalar va kattalar birgalikda bajarishadi.

Bolalar kattalar bilan birgalikda mehnat qilishlari orqali mehnat malaka va ko‘nikmalarini tez va oson egallab oladilar, ularning kattalar mehnati to‘g’risidagi bilimlari boyidi, bunday mehnat bolalarga quvonch bag’ishlaydi.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishda hamma metod va vositalardan keng ravishda foydalaniladi.

Shunday qilib kattalar mehnati bilan tanishtirish bolalar mehnat va axloqiy tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mehnat qilish muntazam tarzda bo‘lib, unda hamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.

O‘z-o‘ziga xizmat qilish. Bu bolalar mehnatining bir turi bo‘lib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va yechinishga, o‘yinchoqlarni yig’ishtirib qo‘yishga o‘rgatiladi. O‘z-o‘ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma’lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar qo‘llaridan kelgan ishni o‘zlari bajarishga o‘rganadilar. O‘z-o‘ziga xizmat bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg’otadi, batartiblikka, intizomli bo‘lishga, xulq-odobga o‘rgatadi.

Bolalar xo‘jalik-maishiy mehnatga MTTda va oilada jalb etiladi. Uning mazmuni har xil bo‘ladi: xona va MTT maydonchasini yig’ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish tovoqlarni yig’ishtirish,choy idishlarini, kug’irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg’ulotga kerakli materiallarni tayyorlab qo‘yish, mashg’ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig’ishtirib olish va hokazo.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muxim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to‘g’risidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga extiyotkorlik munosabatini tarbiyalash

vositasidir, shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o‘g’itlash, ko‘chatni o‘tkazish, o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniktiradi, ularning sog’ligini mustaxkamlaydi.

Qo‘l mehnati - mashg’ulot, o‘yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘yinchoq va qurilmalarni tayyorlash bo‘yicha bolalar mehnatidir (qog’oz qiyqimlarini tashlash uchun, o‘simliklar urug’i uchun qutichalar, qo‘g’irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o‘xshash narsalar tayyorlash).

Qo‘l mehnatini bajarish orqali bola natijaga erishadi narsa, buyum vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo‘yash, qirqish, arralash, mix qoqishni, tikish va shunga o‘xshash oddiy mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topog’onlik, zexnlilik xislatlari o‘sadi.

Bolalarda mehnat faoliyatini shakllantirish. Mehnat faoliyati har xil mehnat jarayonlaridan tashkil topgan, har xil mehnat turlarini birlashtiruvchi keng tushunchadir. Mehnat jarayoni-mehnat faoliyatining o‘ziga xos bir bo‘lagi bo‘lib, uning tarkibida esa mehnat faoliyatining hamma tarkibiy qismlari, mehnatning maqsadi, material va mehnat qurol-aslaxalari, biron natijani yuzaga keltirish maqsadiga erishish uchun sarf qilingan barcha mehnat harakatlari, mehnat sabablari va mehnat maxsuli yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mehnat faoliyatini egallash – bu birinchi navbatda mehnat jarayonini uning tarkibiy qismlari bilan birgalikda egallab olishdir. Shunga qarab bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari belgilanadi va ular qo‘yidagilardan iboratdir:

1. Bolalarni bo‘lajak mehnat faoliyati oldidan maqsad qo‘yishga o‘rgatish.
2. Mehnat jarayonini, mehnat faoliyatini rejalashtirib olishga o‘rgatish.
3. O‘z ish joyini tayyorlab olishga, mehnat madaniyatiga o‘rgatish.
4. Mehnat malakasi va ko‘nikmalarini o‘rgatish.
5. Bajarilgan mehnatning natijasi, sifati va ahamiyati, qancha vaqtda bajarilganligiga qarab o‘zining va boshqalarning ishini to‘g’ri baholashga o‘rgatish.
6. Mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish.

ISSN 3060-4567

7. Jamoa mehnat faoliyati vaqtida bolalarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish.

Maqsad qo‘yish. Maqsad qo‘yish kattalar taklif etgan maqsadni qabul qilishdan boshlab to o‘zi mustaqil maqsad qo‘yadigan bo‘lguncha rivojlanib boradi (o‘simlikka suv quyishdan to uni o‘stirguncha). Bolalarning o‘z oldilariga maqsad qo‘yib ish bajarishlarini rivojlantirishlari uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

1. Bolalar mehnat qilishdan ko‘zlangan maqsadni tushinib yetishlari kerak (nima uchun u yoki bu ishni bajarishlari kerak, undan ko‘zlangan natija nima?);

2. Kutilgan natijani rasm, qurilma va shunga o‘xshashlar tarzida ko‘rsatmali tasavvur eta bilish;

3. Ishning mo‘ljallangan vaqtda bajarilishi;

4. Bolalar kuchi yetadigan ishlarni qilishi (masalan, ko‘chat o‘tkazish, o‘simlikni sug’orish, ularni parvarish qilish vahokazo..) kerak.

Bola o‘z mehnatidan ma’lum bir natijaga ega bo‘lishni anglab yetgan taqdirdagina u mehnat faoliyatining maqsadini mustaqil belgilaydi va ishtiyoq bilan mehnat qiladi.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olish – Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnati jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa, u hech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olganlaridagina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar. Masalan, tikishda ipni o‘lchab kesib olish, ninaga o‘tkazish, uchini tugish, tikish; o‘yinchoq yasash uchun egish, bukish, tahlash, burchaklarini bukish, qirqish, tikish kabi mehnat harakatlarini egallab olishlari kerak bo‘ladi. Bu ish harakatlarini ma’lum tartib bilan bajarish uchun har bir bola o‘z mehnat faoliyatini rejalashtirib ola bilishi kerak.

Avvaliga mehnat faoliyatini rejalashtirib olishni bolalarga tarbiyachi o‘rgatadi: mehnat maqsadini tushuntiradi, kerakli materiallarni, mehnat qurollarini tanlaydi va uni har bir bola oldiga tayyorlab beradi va bolalarga mehnat faoliyati jarayonini qanday tartibda bajarish kerakligini tushuntiradi.

Mehnatning sababi, ya’ni bola nima uchun mehnat qilishini bilishi kerak. Bu quyidagi shart-sharoit ta’sirida rivojlanadi:

1. Bolalar mehnatidan keladigan natijani va uning ijtimoiy mohiyatini bilishlari kerak.

2. Bolalar yasagan buyumlardan MTTda, oilada foydalanish kerak.

3. Bolalarning ijtimoiy-foydali mehnatini amaliy jihatdan tashkil etish.

4. Bolalar mehnatining natijasini, uning boshqa kishilar uchun foydasini baholash.

Shunday qilib, mehnat jarayonining undagi tarkibiy qismlar bilan egallab olinishi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlanishi hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalarni o‘simlik va hayvonlarni kuzatishga, o‘zgarishlarni aniqlab borishga, burchakdagi o‘simlik va hayvonlarga g’amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishga, ularda yuz beradigan o‘zgarishlarni ko‘ra bilish va ular to‘g’risida so‘zlab berishga o‘rgatadi. Yozda navbatchilarga ertalab gulpushtalarni sug’orish, guldasta tuzash, gul solingan guldonlar suvini almashtirish topshiriladi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo‘l mehnati bo‘yicha mashg’ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo‘lsa va tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishni talab etgan xollarda ana shunday mashg’ulotlar o‘tkaziladi.

Bolalarning jamoa mehnati dastlabki jamoachilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o‘zaro yordam, shu bilan birga mehnat taqsimoti ham mujassamlashgan bo‘ladi. Bunda mehnat yutuqlaridan birgalikda quvonadilar, ish yaxshi chiqmasa birgalikda qayg’uradilar.

Mehnat bolalarga quvonch bag’ishlaydigan qilib rejalashtirilishi lozim. U ma’lum izchillik bilan amalga oshirib borilishi kerak. Mehnat qilishlari uchun hamma bolalarga yetarli miqdorda kerakli qurollar, asboblar bo‘lishi, ular bolalarning yoshiga, imkoniyatiga mos kelishi, o‘zlari mustaqil foydalanadigan qilib joylashtirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. N.Kayumova “Maktabgacha pedagogika” Darslik 2019 y.

2. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).

3. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.

4. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).

5. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.

6. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.

7. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.9. 09.014 Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.

8. Chorieva, D. A. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.

9. Anvarovna, C. D. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATION. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 58-62.

10. Anvarovna, C. D. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 48-53.

11. Anvarovna, C. D. (2024). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.

12. Choriyeva, D., & Ahmadova, S. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 1(2-3).

13. Durdona, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARNING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).

14. Durdona, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.

15. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).

16. DURDONA, C., & SHAHNOZA, K. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O 'RNI. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(7), 191-196.